

Tong

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!



N: 47 (67316)
2020-yil 23-noyabr

yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

BILIMLAR KONIDIRSAN, SEN BUXORO, HAYOT BOG'BONDIRSAN, SEN BUXORO!



- O'quvchilarning «Tong yulduzi» gazetasi bilan do'stlashishi, mutolaaga mehri Yangi O'zbekistonning yangicha dunyoqarashga ega bo'lishida katta ahamiyatga ega, - deydi Buxoro viloyati, xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Halim Rajabzoda. **3-bet**

**BOLAJONLARIMIZ
UCHUN «BOLA
HUQUQLARI»
DARSLIGI
TAYYORLANMOQDA**

2-bet

**ASSALOM,
QORAQALPOG'ISTON!**



4-bet

**«ZO'R
TABASSUM»**



8-bet

BOLAJONLARIMIZ UCHUN «BOLA HUQUQLARI» DARSLIGI TAYYORLANMOQDA



20-noyabr – Jahon bolalar kuni. Bu yil mazkur sanada Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyasi qabul qilinganligining 31 yilligi hamda

«Bola huquqlari» Deklaratsiyasining 61 yilligi nishonlanmoqda.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal Saidov shu munosabat bilan bizga quyidagilarni so'zlab berdi:

– Avvalambor, barcha yurtdoshlarimizni – yoshi ulug'larimiz, ota-onalar hamda bolalar, o'g'il va qiz farzandlarimizni Jahon bolalar kuni va shu sanaga uyg'un boshqa xalqaro

huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyasi talablarini bajarish borasida katta ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmogda.

Pandemiya sharoitida ham bolalarning barcha

ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi hayotga joriy etilmogda. Yurtimizda 11 yillik maktab ta'limi tizimi qayta tiklandi.

2020-yil sentyabr oyidan boshlab o'quvchilarning xohish-istaklaridan kelib chiqqan holda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim va kasb-hunar maktablarida ta'lim jarayoni onlayn va an'anaviy tarzda amalga oshirilmogda.

BMT Bosh kotibi Antoniu Gutterishning «Har bir bolaning barcha huquqlariga amal qilinishi kerak», degan da'vatiga a s o - san,

huquqlarini izchil ro'yobga chiqarishga intilmogdamiz. Jumladan, mamlakatimizda har bir bolaning bilim olishga oid huquqini ta'minlashga jiddiy ahamiyat berilmogda.

Bu haqda so'z borganda, 2020-yil 23-sentyabr kuni «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan yangi tahriri qabul qilinganini ta'kidlash lozim. Yangi Qonun O'zbekistonda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, bolalarning ta'lim olish huquqlarini mustahkamlash hamda xalqaro standartlar asosida ta'lim xizmatlarini tashkil etish maqsadlariga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda ta'lim va tarbiya sohasida keng ko'lami tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, 2025-yilga borib 3-7 yoshdagi bolalarning 74,5 foizini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni nazarda tutuvchi maktabgacha

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan «Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga

masala hal qilinayotganda, shuningdek, har qanday sud muhokamasi yoki ma'muriy muhokama davrida bolaning fikri inobatga olinishi belgilab berildi.

Yangi parlamentning qonun ijodkorligi yo'nalishida ham bu borada muhim natijalarga erishildi. Avvalo,

2020-yil 10-martda «Bola huquqlarining qo'shimcha kafolatlarini belgilanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi.

Shu bilan birga, Oliy Majlis palatalari va Hukumatning qo'shma qarori bilan Bolalar huquqlarini himoya qilish va ularga qulay shart-sharoit yaratishga oid milliy harakatlar dasturi tasdiqlandi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi doirasida ham bolalar huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmogda.

Ayni chog'da, maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalarida, akademik litsey va kollejlarda «Inson huquqlari», «Bola huquqlari» o'quv kurslarini joriy etish vazifasi belgilangan. Hozirgi vaqtda markaz tomonidan shu sohaga taalluqli o'quv kursi dasturi va «Bola huquqlari» darsligi tayyorlanmoqda.

**Nodira NAZAROVA
yozib oldi**



Akmal SAIDOV, akademik, Yuridik fanlari doktori




bayramlar bilan chin qalbdan samimiy tabriklayman!


«Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyada bolalarning barcha huquq va erkinliklari xalqaro miqyosda kafolatlangan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning ertasigayoq mustaqil navqiron mamlakatimiz BMTning «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyasini ratifikatsiya qilgan.

Bu muhim dalil yurtimizda bolalarga bo'lgan yuksak e'tiborning yana bir o'ziga xos namunasidir. O'tgan yili Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tashabbusi bilan «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyaning 30 yilligi mamlakatimizda keng miqyosda bayram qilindi.

Yangi O'zbekistonda onalik va bolalikni qo'llab-quvvatlash, bolalarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish masalalari alohida va doimiy e'tiborda turibdi. Ayniqsa, BMTning «Bola



Oilada bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday masala hal qilinayotganda, shuningdek, har qanday sud muhokamasi yoki ma'muriy muhokama davrida bola o'z fikrini ifoda qilishga haqlidir.



Bolalarning davlat organlariga bevosita qilgan murojaatlarini to'liq ko'rib chiqish kafolatlanadi va bola to'liq muomala layoqatiga ega emasligi vajlari bilan bu turdagi murojaatlarni ko'rmasdan qoldirishga yo'l qo'yilmaydi.

m a m -

lakatimizda

so'nggi 2 yilda muayyan ijobiy tajriba to'plandi.

2019-yil 22-aprelda

huquqlari

bo'yicha vakil

lavozimi joriy etildi.

Oilada bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday

MUXBIR SAFARDAN QAYTDI

BILIMLAR KONIDIRSAN, SEN BUXORO, HAYOT BOG'BONIDIRSAN, SEN BUXORO!

Aziz o'quvchilar, Sizlar jonajon maktabingiz va ustozlaringizni qanday mehrla sog'ingan bo'lsangiz, biz ham sizlar bilan bo'ladigan uchrashuvlarni ana shunday sog'inch bilan kutdik. Chunki butun dunyoga xavf solgan pandemiya tufayli bo'lgan karantinlar uchrashuvlar-u va o'qishingizga ham ta'sir qilmay qolganligidan xabaringiz bor. Mana, nihoyat ushbu xavf asta-sekin uzoqlashayotgani haqida iliq gaplar eshita boshladik. Ammo gazetamiz sizlar bilan pandemiya sharoitida ham o'z muloqotini aslo susaytirgani, ijodiy jarayonlar to'xtagani ham yo'q. Turli tanlovlarimizni

o'z vaqtida e'lon qilib turganimizdan zukko mushtariylarimizning xabari bor. G'oliblarni taqdirlashni esa biz sabrsizlik bilan kutdik. Birinchi tashrifimizni g'olib o'quvchilari ko'p bo'lgan Buxoro viloyatiga borishdan boshladik. Buxoro shahri sovuq bo'lsa-da, qiyoshli kun bilan bizlarni kutib oldi. Viloyat «Barkamol avlod» bolalar maktabi rahbari Mavjuda opa Jamolova, boshqarma boshlig'i o'rinbosari Halim Rajabzoda, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi matbuot kotibi Iroda Oripova hamkorligida o'quvchilar, ota-onalar, ustozlar bilan to'la zalga tashrif buyurdik.

19-DIUM, «Barkamol avlod» bolalar maktabi o'quvchilari tomonidan tayyorlangan chiqishlar, she'rlar, kuy-qo'shiqlar, go'zal raqslar ijro etildi. Ayniqsa, Milliy gvardiya boshqarmasi harbiy xizmatchilari tomonidan tayyorlangan ko'rgazmali chiqishlar hamda qo'shiqlar orqali badiiy kechaning fayziga fayz qo'shildi...

Biz Toshkentga qaytayotganimizda Jizzax, Navoiy, Samarqand viloyatlariga qor yog'ayotganini kuzatib keldik. Poytaxt ham oppoq qor bilan qoplangan ekan. Birinchi qor safarimizni xosiyatligini olqishlayotgandek edi.



Ma'rifat RAJABOVA, 22-umumta'lim maktabi direktori:
– Meni boshqarmadan tadbirga taklif qilishdi-da, kelavering, ajoyib yangilik bor, deyishganda, hayron bo'ldim. «Barkamol avlod» bolalar maktabida o'tkaziladigan tadbirlar juda yaxshi tashkillashtiriladi. Shunga shoshilib keldim. Keyin bilsam, maktabimizning 3-sinf o'quvchisi Dono Hayotova «Boylkni bolalikkdan asrang!» tanlovida g'olib bo'libdi. Juda xursandman. Meni ham taqdirlashganidan boshim osmonga yetdi. Bolalar nashrlari bilan hamkorlikni, «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishni ota-onalar va bolalar xohlashyaptimi, demak, hech narsa to'sqinlik qila olmaydi.

Sanjar IBRAGIMOV, Buxoro shahridagi 32-umumta'lim maktabi direktori:

– Prezidentimiz ilgari surgan besh tashabbus asosida tashkil etilgan tadbirlar Respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida o'tkazilmoqda. Shu munosabat bilan bugungi tadbirimizga bolalar nashrlaridan muharrirlar tashrif buyurib, tanlovlarda g'olib bo'lgan o'quvchilarni taqdirlashlari hamkorligimizni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, deb o'ylayman. «Boylkni bolalikkdan asrang!» tanlovida bizning maktab o'quvchisi Amirbek Bahodirov ham g'olib bo'libdi. Tasviriy san'at o'qituvchisi Shuhrat Sodiqov hamda ustozning, qolaversa, o'quvchilarni pandemiya sharoitida ham mutolaaga jalb qila olganimiz, tanlovlardan xabardor qilganimiz uchun meni ham tashakkurnoma bilan taqdirladilar. Jamoaning keyingi faoliyatida omadlar yor bo'lsin, deb qolaman.



Tadbir so'ngida «Tong yulduzi» gazetasining «Boylkni bolalikkdan asrang!», «Mening yangi qahramonim!», «G'uncha» jurnalining «Tabiat gavharlari» deb nomlangan tanlovlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan o'quvchilar va ularning ustozlari faxriy yorliq, tashakkurnoma va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

– «Tong yulduzi» bolajonlarning sevimli gazetasi, – dedi ko'zlari sevinchdan porlab, Romitan tumanidagi 35-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, g'oliba Shirin Baxshillovevaning ustozisi Lobar Ergasheva.
– «Tong yulduzi» bolajonlarning beg'ubor, o'qishli, qiziqarli gazetasi sanaladi. O'quvchim g'oliblar safida ekanligidan xursandman.

Shirin BAXSHILLOVEVA:

– Men sevimli gazetamda e'lon qilingan «Mening yangi qahramonim» tanloviga insho yozdim va ustozim Lobar opaga ko'rsatdim va birgalikda tahririyatga yubordik. G'olib bo'ldim, deb o'ylamagandim. Ammo birinchi o'ringa munosib topilganligimni gazetada o'qib, oilamiz bilan sevindik. Ustozimni mutolaaga mehr uyg'otayotganliklaridan juda minnatdorman. Gazetaning har bir sonini o'qish menga zavq beradi.

Dunyoga yo'l ochgan yangi davron bu, Yangi O'zbekiston - yangi zamon bu!

VATAN

OLDIDAGI BURCH

Qoraqalpog'iston yuraginning parchasiga aylangan. Shuning uchun ham bu go'shaga safar qiladigan bo'lsak, mamnuniyat bilan yo'lga tushaman. Poyezdda yo'lga chiqqan, erta tongda kutib olingan mehmonlar «Qaydasan Mo'ynoq-u Ellikqal'a, Taxiyyatosh-u To'rtko'l?!» deya odamlar orasiga oshiqishdi. Men esa Nukusda qoldim. Shahardagi 2-musiqqa maktabiga nafaqat o'quvchilar, balki olim-u uy bekalari, tijoratchi-yu tadbirkorlar yig'ilishibdi.

Kuni kecha poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 325-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilinganining 29 yilligiga bag'ishlangan «Bayrog'im - mening faxrim!» shiori ostida bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

ASSALOM, QORAQALPOG'ISTON!

Bu yerda sehr borday, Amu to'liqlariga hamohang mayin va jo'shqin ovozlar ovul-u qishloqlar osha saholardan aks sado bo'lib qaytadi. Jenisbek-u

kuyushlari meni yanada ruhlantirib yubordi.

Jajji qalb sohibi bo'lmish maktab o'qituvchilarining maqsadi ulug' - bitiruvchilarimizning barchasi

umbaloq oshishi zavqli!..

Xullas, shu kunlarda Nukusda tadbirlar tantanalarga, bayramlarga ulanyapti!

Men qardosh - qarindoshlar huzurida yangi O'zbekistonning yangicha qiyofasiga, yurtdoshlarimizning yangicha dunyoqarashlariga guvohi bo'lib yuribman.

Umida ABDUAZIMOVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi



Muyassarxondek farzandlari opera sohasida butun dunyoni zabt etishi ham ehtimol shundandir...

Galdagi manzilimiz Nukus shahridagi 3-maktabga yetib borgach, u yerdagi o'quvchilarning erishgan yutuqlaridan quvondik. Ikki nafar o'quvchi-qizlari Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi bo'libdi. Qorako'llik o'quvchilarning yetmish foizi oliyoghlarga o'qishga kiribdi. Fan olimpiyadasi g'oliblari, turli tanlov peshqadamlari, mohir sportchi-yu san'atsevar yoshlari ko'p bo'lgan maktab sahnasida ikki yigitcha toychoqdek sakrab raqsga tushishi, o'n yoshli bolakayning italyancha qo'shiq aytishi, boshidagi taxiyasi yarashgan qizchalarining tor chertib qo'shiq

oliyoghlarga o'qishga kirsin, ziyoli bo'lsin! Ajab emas, bu maktabdan ham Al Beruniy, Al Xorazmiylar yetishib chiqsa!

«Yakka terak» mahallasidagi qiziqarli savollari bilan bolalarni fikrlashga undagan ustozning sovg'alari, bulbulzabon baxshining chiqishlari, «Turon» mahallasidagi opa-singillarning biri skripka, boshqasi fleyta chalib diltortar musiqa ijro etishiga ofarin demasdan iloj yo'q!

Istarasi issiq Asilbek ismli bolakayning do'mbira chalib, otalarning «Balli!» «Baraka top!» degan olqishlariga javoban jilmayib qo'yib, kuyini bemalol davom ettirishini ko'ring! Erta-indin mahoratini Ispaniyada namoyish etishga hozirlik ko'rayotgan yana bir raqqos yigitchaning qadamlari chaqqon: otdek yugurib, burgutdek uchib, ayiqchadek



«KAMALAK»CHI EKANLIGIMDAN FAXRLANAMAN!



Maktabda o'qib yurgan paytlarimda Yoshlar tashkilotida biror tadbir bo'lsa, hamma ishimni chetga surib, yugurardim. Chunki tashkilotning barcha loyihalari va tanlovlari men uchun juda qiziqarli edi. Ushbu tashkilotga 6-sinfda o'qib yurgan kezlirim «Kamalak»ka ilk qadam qo'ygan bo'lsam, turli fan olimpiadalari tufayli bir muddat tanaffus ham qilganman.

2017-yilda «Hokim va yoshlar» uchrashuvida viloyat yoshlar yetakchisi Ahadjon Akbarov bilan tanishganimni yaxshi eslayman. O'shanda Ahadjon aka menda liderlik qobiliyati borligini, uni yuzaga chiqarishim kerakligini to'g'ri tushuntirgan edilar. Ana shu suhbatimiz Yoshlar tashkilotiga a'zo bo'lishimga sabab bo'ldi.


Hayotimda Yoshlar tashkilotining alohida o'rni bor. Shu kungacha erishgan va erishayotgan yutuqlarimda bu

tashkilotdagi ustozlarimning hissalarini beqiyos. Ularning bizga bergan o'rinni maslahatlari, motivatsiyalari, ijtimoiy faollik to'g'risidagi tushunchalari tufayli biz jamiyatda qandaydir ma'noda o'z o'rnimizni topaymiz. Hammasi uchun tashkilotdagi ustozlarimizdan minnatdormiz, ulardan qarzdormiz.

Tashkilotning eng asosiy bo'g'ini bu sardorlar Kengashi hisoblanadi. Sardorlar Kengashini hech qanday manfaat emas, balki fidoyilik, yurt taqdiriga haqiqiy daxldorlik hissi birlashtiradi. Bu tashkilotning a'zosi bo'lganimdan faxrlanaman. Chunki tashkilot orqali ochilmagan qirralarimiz kashf etildi.

«Kamalak» doimo qalbmizda yashaydi. Necha yoshda bo'lishimizdan qat'iy nazar, doimo bu tashkilot bilan birgimiz!

Dilmurod DILMURODOV,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 1-bosqich talabasi



INTERROGATIVE PRONOUNS

What is an Interrogative Pronoun?

An interrogative pronoun is pronoun which is used to make asking questions easy. There are just five interrogative pronouns. Each one is used to ask a very specific question or indirect question. Some, such as «who» and «whom», refer only to people. Others can be used to refer to objects or people. Once you are familiar with interrogative pronouns, you'll find that it's very easy to use them in a variety of situations.

• **What** – Used to ask questions about people or objects.

Examples:

o What do you want for dinner?

• **Which** – Used to ask questions about people or objects.

Examples:

o Which colour do you prefer?

• **Who** – Used to ask questions about people.

Examples:

o Who is that?

• **Whom** – This interrogative pronoun is rarely seen these days, but when it shows up, it is used to ask questions about people.

Examples:

o Whom did you speak to?

• **Whose** – Used to ask questions about people or objects, always related to possession.

Examples:

o Whose sweater is this?

EXERCISES FOR INTERROGATIVE PRONOUNS

Fill in the blanks with an interrogative pronoun.

1. _____ threw the football?

A. who B. what C. which D. whose

2. _____ would you prefer, coffee or tea?

A. who B. whom C. which D. whose

3. _____ time do we need to be at the airport?

A. which B. what C. whose D. whom

4. _____ car is that?

A. whom B. whose C. what D. who.

To'liqin PARDAYEV

MY FLAG - MY PROUD

Maktabimizda «My flag - my proud» nomi ostida bilimlar bellashuvi bo'lib o'tdi.

Musobaqamiz Vatanimizni, bayrog'imizni madh etuvchi she'rlar bilan boshlangan bo'lsa, so'ng har bir sinfning zukko o'quvchilari davlat ramzlarini ingliz tilida ravon va be-xato ta'rifladilar.



Bunda, albatta, jonkuyar ingliz tili fani o'qituvchilari Maxzuna Haydarova, Diyora Hamroyeva va Sadoqat Sapayevalarning mehnatlarini alohida e'tirof etmoq lozim. O'quvchilar tomonidan ijro etilgan sahna ko'rinishlari-yu raqs dasturlari barchada a'lo kayfiyat uyg'otdi. Musobaqa so'ngida har bir sinfning tadbir uchun tayyorlagan amaliy ish namunalari baholanib, yakunda 7-«A» sinf g'olib deb topildi. Bundan tashqari, 7-«B» sinf o'quvchisi Gulyora Haydarova «Eng yaxshi suxandon» deya topilgan bo'lsa, 7-«A» sinf o'quvchisi Nodira Qobuljonova «Eng zukko o'quvchi» deya baholandi. «Eng yaxshi sahna ko'rinishi» nominatsiyasiga esa 5-«A» sinf o'quvchilari tayyorlagan sahna ko'rinishi munosib deb topildi. Musobaqa o'quvchilarimizga quvonch, zavq bag'ishladi, eng asosiysi, ularda Vatanga bo'lgan muhabbatni yana bir karra mustahkamladi, deb ayta olamiz.

Maryam MUTALOVA,

poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi

122-umumta'lim maktabining ingliz tili uslub birlashmasi rahbari

Tong yulduzi da

HUQUQ DARSII

MUSTAHHKAM ISHONCH

O'z haq-huquqlarini yaxshi bilgan odam hech qachon aldanib qolmaydi, turli qaltis vaziyatlardan bemalol chiqib keta oladi.


Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 155-umumta'lim maktabi o'quvchilari ham kuni kecha BMTning «Bola huquqlari to'g'risida»gi

Boboyeva boshchiligidagi o'tgan bu darslarning mazmunli, qiziqarli, foydali o'tishiga 6-«B» sinf rahbari Nargiza Mirhabibova, 8-«A»

sinf rahbari Zulfiya Siddiqova, 10-«A» sinf rahbari Xolida Jumayeva, 11-«B» sinf rahbari Ullijon Xudoynazarova kabi ustozlar o'z hissalarini qo'shishdi.

– Darsda namoyish etilgan slaydlar, o'quvchilar tomonidan ijro etilgan sahna ko'rinishlari, tinchlik, baxtiyor bolalikni tarannum etuvchi she'r va qo'shiqlar barchamizda ulkan taassurot qoldirdi, – deydi to'liqinlab 6-«B» sinf o'quvchisi Samandar Zokirov.

Shuningdek, mazkur ochiq darsda 11-«A» sinf o'quvchilari Bibixon Burxonova, Bobur



Zafarov, 8-«A» sinf o'quvchilari Xonzodabegim Burxonova, Ibrohim Ermatovlar ham faol ishtirok etishdi. Xo'sh, aziz o'quvchilar, siz-chi, o'z haq-huquqingizni qay darajada bilasiz? Bilim maskaningizda ayni kunlarda qanday tadbirlar o'tkazayapsiz? Bizga shu haqda, albatta, yozib yuboring.

Ozoda TURSUNBOYEVA



(Davomi.
Boshi o'tgan sonlarda)

– Mana ko'rasan, yutqazmaydi. Qara turishini.

– Mayli, – dedim qaddini zo'rg'a tik tutib mag'rur turgan xo'rozimga qarab. – Ertaga peshindan keyin hovlimiz orqasidagi maydonda urishtiramiz.

– Tonmaysanmi? – dedi Matrayim o'ng qo'lini cho'zib.

– O'g'il bola gap! – dedim qo'l tashlab.

Ertasi kuni uyimiz orqasidagi maydonga Matrayim bilan xo'rozimizni qo'ltiqlab chiqdik.

Bahrom AKBAROV,
bolalar yozuvchisi



(Sarguzasht qissa)

BIBIQJONNING JASORATI

Mahallamizdagi hamma bolalar bizni kutib turishgan ekan.

– Xo'sh, nimadan o'ynaymiz? – dedi Bahodir maqtanchoq iljayib.

– Sen oldin shartingni ayt, – dedi Matrayim ham bo'sh kelmay.

– Kimning xo'rozi yutqazsa, mana shu yerdagi bolalarning hammasiga muzqaymoq olib beradi.

– Yaxshi, – dedim men sal dadillanib. – Gapdan qaytish yo'g'a?..

– O'g'il bola gapim, – dedi u kekkayib.

– Endi bizning shartni ham eshitib ol, – dedi Matrayim o'ng ko'zini qisib. Bir haftagacha uyga kelib salom berish va mening xo'rozim yutqizdi, deb qichqirish. Bo'ptimi?!

– Bo'pti, gapdan qaytgan yigitmas!

Bu gapni eshitib mahallamiz bolalari baravariga hushtak chalib yuborishdi. Avval Bahodir maqtanchoq xo'rozini yerga qo'ydi, so'ng men. Bolalarning qiy-chuvi boshlandi. Bahodirning xo'rozi mening xo'rozimni ko'rdiyu, qotib qoldi va nima uchundir orqasiga tisarila boshladi. Bolalarning qiy-chuvi avjiga chiqdi. Bahodir xo'rozining qilig'idan avval hayron bo'ldi, so'ng jahli chiqib xo'roziga qarab baqira boshladi.

– Ha, akangni xo'rozi, bopla uni.

Xo'roz o'n qadamcha orqaga tisarilib, qanotlarini keng yozdi-da, birdan «qu-qu-qu-qu» deb qichqirib, qanotlarini yonboshiga ketma-ket urib, turgan joyida sakray boshladi. Buni ko'rib Bibiqjonning ko'zlari birdaniga yashnab ketdi. U boshini birozgina egdi-da, qanotlarini salgina yoyib, u ham «qu-qu-re-

qu» deya uch marta qichqirdi. Qichqirishi tugar-tugamas Bahodir maqtanchoqning xo'rozi Bibiqjon tomon yugurdi. Bibiqjon joyida qotib turardi. Lapanglab chopib kelayotgan xo'roz Bibiqjondan sal narida qanotlarini yoygancha turib qoldi. Endi Bibiqjon ham qanotlarini yoydi-da, u tomonga qarab sakradi. Buni ko'rib, bolalar ovozlarning boricha qichqira boshladilar. Bibiqjonning harakatini ko'rgan Bahodirning xo'rozi ham sakray boshladi. Ikkala xo'roz patlarini yoygancha bir-birlariga qarab sakrashardi. Nazarimda, ular urishish o'rniga raqs tushayotgandek edi. Nihoyat, Bibiqjon sakrashdan to'xtab, o'zini katta xo'roz tomon otdi. Xo'roz qanotlari bilan uni to'xtatdi-da, to'shi bilan Bibiqjonni astagina urib qo'ydi. Bibiqjon ham bu holatni takrorladi. Ikkala xo'roz yana aylana boshladilar. Bu holatni ko'rib, Bahodirning jahli chiqib ketdi. Chunki u xo'roziga juda ishongandi-da! Shu payt xo'rozini urmoqchi bo'lib endi qo'lini ko'targandi, kuchli bir qo'l uni ushlab qoldi. Bu Normamat tog'aning qo'li edi.

– Ey, uyalmaysanlarmi ota-bolani urishtirgani?! Ko'rdilaringmi, hatto xo'rozlar ham urishmaydi. He, o'rgildim senlardan. Sen, – dedi u Bahodirga qarab, – tuppa-tuzuk, tagli-tugli odamning bolasi. Buvang bilan esa qishloq ahli faxrlanardi. Chunki u qishlog'imizdan chiqqan birinchi akademik edi-da. Sen kimga o'xshading o'zi?! Qara xo'rozlarning xursandchiligini... Ikkalasi quyib qo'ygandek

bir-biriga o'xshaydi. Bular ota-bola xo'roz. Xo'roz bo'lgandayam haqiqiy xo'rozlar-ku! Shu sababli ular urishmaydi. Odam bo'lganda balki urishardi. Senlar bu jonivorlarni urishtirib nima manfaat topasizlar? Urishishdan hech foyda bormi o'zi? Urush nima ekanligini bilasizlarmi? Senlar ham jilla qursa shulardan ibrat olsalaring bo'lardi, – Normamat tog'aning kuyinib gapirishidan maydondagi bolalar jimib qoldi.

– Seni nima jin urdi? – dedi Normamat tog'a menga jahl bilan qarab. – Yo sen ham esingni yeb qo'ydingmi?

Normamat tog'aning bu gapi menga juda og'ir botdi. Hiqillab yig'lab yubordim.

– Kechiring, endi bunday qilmayman, – dedim zo'rg'a.

– Bolajonlarim, – dedi Normamat tog'a birozdan so'ng og'ir xo'rsinib. Sizlarga ta'lim-tarbiya berish bizning, ya'ni kattalarning vazifasi. Shu sababli, hozir aytadigan gaplarimni og'ir olmag. Goho o'ylanib qolaman, bolalarimizni ayab, ba'zi narsalarni ochiq aytmay xato qilayotgandirmiz, deb. Mana sen, isming nima uchun Bahodir ekanligini bilasanmi?

Normamat tog'aning bu gapidan keyin hamma bolalar yalt etib Bahodirga qarashdi. U biroz o'ylanib turdi-da:

– Hamma bolalardan zo'r, bahodir bo'lsin, deb qo'yishgandir-da, – dedi iljayib...

– Bo'lmagan gap! – dedi Normamat tog'a.

Men ularning shunday jahllari chiqqanini birinchi marta ko'rishim edi.

(Davomi bor)

ONAJONIM

Erkalab boshim silab,
Omad-u baxtim tilab,
Doim yo'limga qarab,
Ko'z tikar onajonim.

Maktabdan shod qaytaman,
Sha'niga she'r aytaman,
Bo'lsam hamki qayda man,
Qalbimda onajonim.



Dilmura XOLBOYEVA,
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi
283-umumta'lim maktabining
9-sinf o'quvchisi



BAXT NIMADA?

Hoy-u havas ko'yida jon fido qilgan,
Boyligni o'z yo'lida muddao qilgan.
Faqirni shoh vale shohni gado qilgan,
Baxtning o'zi nima ekan, bilolmadim?!

Bilasanmi, baxt aslida dilda g'urur,
Baxt insonning yo'llarini yoritgan nur.
Baxtli yashash inson uchun muddaodir,
Baxtsizlikni sira dilga tuyolmadim.

Baxt emasmi yaqinlarning kulib yursa,
Shukur aytib ko'kragini kerib tursa.
Asl baxt deb tuprog'ida davron sursa,
Quvonchimni undan ortiq qo'yolmadim.

Jasurbek TAJIBAYEV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Taxiotosh
shahri, 16-umumta'lim maktabining
11-sinf o'quvchisi

MENING ISMIM QUYOSHxon

Tabiatjon oilam,
Tanishtiray, kelaqol.
Mening bobom oqterak,
Buvim esa majnuntol.

Mening otam lochindir,
Onam esa kabutar.
Amakim bor ulug' tog',
Kelinoyim ko'zmunchoq.

Opam erur atirgul,
Singillarim loladir.
Ukam bordur yagona,
Misli burgut boladir.

O'zimni tanishtiray,
Mening ismim quyoshxon.
Oilamiz nurimdan,
Bahra olishar har on.

Munisaxon AKMALOVA,
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi
62-umumta'lim maktabining 8-«V» sinf
o'quvchisi


«ZO'R TABASSUM» FOTOTANLOVI ISHTIROKCHILARI



99-ishtirokchi Imronbek RUSTAMOV,
Sirdaryo viloyati, Sardoba tumani



183-ishtirokchi Sevara QAYIMOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani



190-ishtirokchi Safina
TO'LQINOVA, Navoiy viloyati,
Navbahor tumani



187-ishtirokchi Umar
ABDUSAMATOV, Toshkent
viloyati, Qibray tumani



173-ishtirokchi Muhsina
OBIDJONOVA, Toshkent
shahri, Yashnobod tumani




2-ishtirokchi Mumtoza
OMONKELDIYEVA,
poytaxtimizning Chilonzor
tumani



122-ishtirokchi Rahmonali
HAYOTOV, Buxoro viloyati,
Vobkent tumani



28-ishtirokchi Turon
TONGOTAROV, Qashqadaryo
viloyati, Koson tumani



194-ishtirokchi Soliha
KARAMATOVA, Toshkent
shahri



95-ishtirokchi Shahram
UMEDOV, Buxoro viloyati,
G'ijduvon tumani

BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70

Tong yulduzi

Muassis:

**O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi**

**Bosh muharrir
Feruza ADILOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAYATI:
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV,
Feruza MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir
Muhammadsharif
FAYZULLAYEV**
**Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li**
**Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV**

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzillimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi - 1646
Buyurtma - V 4424

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taqob. Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08